



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KINEMATOGRAFIYA AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I**

2025-yil “18” fevral

18-son

Toshkent shahri

**“Tirik tarixdan nurli kelajak sari” mavzusida ilmiy-amaliy
anjuman o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-209-sonli qaroriga asosan “Tirik tarix” filmlar turkumini yaratishda chuqur ilmiy asoslarga tayanib aks ettirish hamda Agentlikning 2025-yil 13-yanvardagi 1-son bayoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, o'zbek kinosining 2024-yilda ishlab chiqarilgan filmlar sarhisobi, tahlili va yangi rejalarga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman o'tkazilishi hamda anjuman doirasida “O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyi”da 2025-yilning 20-fevralidan 6-martiga qadar “Ochiq eshiklar kunlari” o'tkazilishi belgilab qo'yilsin.

B U Y U R A M A N:

1. Joriy yilning **12-mart** kuni “O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyi”ning anjumanlar zalida **“Tirik tarixdan nurli kelajak sari”** mavzusida o'zbek kinosining 2024-yilda ishlab chiqarilgan filmlar sarhisobi, tahlili va yangi rejalarga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman o'tkazilishi hamda anjuman doirasida “O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyi”da 2025-yilning **20-fevralidan 6-martiga** qadar **“Ochiq eshiklar kunlari”** o'tkazilishi belgilab qo'yilsin.

2. Ilmiy-amaliy anjumanning tashkiliy qo'mitasi tarkibi **1-ilovaga**, 2024-yil davomida ishlab chiqarilgan filmlar muhokamasiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman yalpi majlisi dasturi **2-ilovaga** muvofiq, “Ochiq eshiklar kunlari” davomida namoyish etilishi belgilangan filmlar jadvali **3-ilovaga** muvofiq, ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar smetasi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. **“O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyi” DUK** (G'afurov) “Ochiq eshiklar kunlari” davomida namoyish etilishi belgilangan filmlar repertuarlari to'g'risidagi kunlik ma'lumotlarni, ular to'g'risidagi tizerlarni saroyga tegishli e'lon taxtalari va elektron ekran-monitorlarda berib borilishini;

“Ochiq eshiklar kunlari” davomida 2024-yilda ishlab chiqarilgan filmlarni saroyning 70 kishilik namoyishlar zalida o’tkazilishini (tashrif buyuruvchilar sonidan kelib chiqib, mos namoyishlar zaliga ko‘chirilishi mumkin);

o‘zbek va jahon retro kinolari ihlosmandlari uchun yangi tashkil etilgan “Retro filmlar” namoyishlar zalini tantanali ravshda ochilishini;

Konferensiya doirasida “Yangi O‘zbekiston”ning yangi kinosan’ati durdonalariga bag‘ishlangan ko‘rgazma tashkil etilishini;

“Ochiq eshiklar kunlari” uchun tashrif buyuradigan kinoihlosmandlar, mutaxassislar, shuningdek, soha talabalari uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlasin.

4. Matbuot xizmati rahbari (Rajabov) **bir kun muddatda** “Ochiq eshiklar kunlari” hamda ilmiy-amaliy anjuman o’tkazilishi haqida, bunda kino sohasida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassis va tashkilotlar, sohada kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash borasida amaliy hamda ilmiy-pedagogik faoliyat olib borayotgan barcha oliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari qatnashishlari mumkinligi va ishtirok etish shartlari to‘g‘risidagi yangilik, e’lonlarni ijtimoiy sahifalar, respublika ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

5. Matbuot xizmati rahbari (Rajabov), **Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi** (Ro‘zmetov), **Davlat buyurtmasi bilan ishlash bo‘limi** (Abdullayev), **Ruxsatnomalar berish masalalari bilan shug‘ullanish va yagona repertuar siyosati yuritilishini ta’minalash bo‘limi** (Nodirova) **o’n kun muddatda** ilmiy-amaliy anjuman tadbirini yuqori saviyada tashkil etish va o’tkazish choralarini ko‘rsin.

6. Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (Ro‘zmetov), **Davlat buyurtmasi bilan ishlash bo‘limi** (Abdullayev), **Ruxsatnomalar berish masalalari bilan shug‘ullanish va yagona repertuar siyosati yuritilishini ta’minalash bo‘limi** (Nodirova), **“O‘zbekiston milliy kinofondi”** (Norov) 2-ilovaga muvofiq mutaxassislarga ilmiy-amaliy anjuman maqolalarini tayyorlashi, 3-ilovaga muvofiq “O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyi” DUK (G‘afurov)ga “Ochiq eshiklar kunlari” uchun filmlar ro‘yxati va filmlarni taqdim etsin.

7. “O‘zbekiston kino san’ati muzeyi” (Muxtarova), **“O‘zbekiston milliy kinofondi”** (Norov) hamda **“O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyi” DUK** (G‘afurov) birgalikda anjuman boshlanishidan avval tasdiqlangan yo‘nalishlarga bag‘ishlangan ko‘rgazma tashkil qilsin.

8. Matbuot xizmati rahbari (Rajabov) **o’n kun muddatda** ilmiy-amaliy anjuman uchun talabgorlar tomonidan taqdim etilayotgan maqolalarni anjuman to‘plami hamda 2024-yilda ishlab chiqarilgan filmlarga oid materiallar katalogini chop etish uchun to‘plasin;

Ishlar boshqaruvchisi – Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig‘i (Norov) bilan birgalikda **ikki hafta muddatda** filmlar repertuarlari to‘g‘risidagi kunlik ma’lumotlarni, yakuniy anjuman to‘plami va filmlar katalogini 150 nusxadan chop etish choralarini ko‘rsin.

9. Ishlar boshqaruvchisi – Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig‘i (Norov) tasdiqlangan smeta doirasida anjuman ishtirokchilari uchun tarqatma materiallar, qayd daftarchasi, ruchka, hujjatlar papkalarini xarid qilinishi va mehmonlar uchun anjuman davomida bir martalik “kofe-breyk” tashkillashtirilishini ta’minlasin.

10. Ta’lim yo‘nalishini muvofiqlashtirish bo‘limi (Xoshimov) anjuman bilan bog‘liq masalalarni muvofiqlashtirib borsin.

11. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor v.b.

Sh. Rizayev